




Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2021- yil yanvar-dekabr




2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM dagi ulushi 69,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **21,1** birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-dekabrda **2309** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,6** foizga kam demakdir.



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 881 ta, sanoatda 477 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 361 ta, qurilishda 165 ta, yashash va ovqatlanishda 123 ta, tashish va saqlashda 47 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	13360	13808	448
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2947	2309	-638
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	70,5	69,2	-1,3
Sanoat	%	37,8	39,6	1,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	95,3	95,7	0,4
Investitsiya	%	42,8	51,0	8,2
Qurilish	%	96,7	80,6	-16,1
Chakana savdo	%	94,8	91,7	-3,1
Xizmatlar	%	55,8	53,8	-2,0
Yuk tashish	%	95,5	94,1	-1,4
Yuk aylanmasi	%	95,3	87,8	-7,5
Yo'lovchi tashish	%	94,2	94,5	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,0	97,1	0,1
Eksport	%	79,9	76,4	3,5
Import	%	69,0	66,5	2,5



2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

YaHM
69,2%

Savdo
91,7%

Sanoat
39,6%

Qurilish
80,6%

Investitsiya
51,0%

Export
76,4%

Xizmatlar
53,8%


Import
66,5%

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Sirdaryo viloyati	2947	2309	-638
<i>shahar</i>			
Guliston	646	589	-57
Shirin	89	71	-18
Yangiyer	164	145	-19
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	252	140	-112
Boyovut	268	183	-85
Sayxunobod	242	202	-40
Guliston	184	152	-32
Sardoba	241	161	-80
Mirzaobod	299	203	-96
Sirdaryo	333	339	6
Xovos	229	124	-105



2021- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – 25,5 %, Sirdaryo tumani – 14,6 %, Mirzaobod tumani – 8,8 %, Sayxunobod tumani - 8,7 %, Boyovut tumani – 7,9 %, hissalari to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2020- y. yanvar-dekabr	2021- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	2947	2309	-638
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	605	361	-244
Sanoat	527	477	-50
Qurilish	197	165	-32
Savdo	1184	881	-303
Tashish va saqlash	55	47	-8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	137	123	-14
Axborot va aloqa	39	38	-1
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	32	25	-7
Boshqa faoliyat turlari	171	192	21

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020-yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi(+;-)
Guliston shahri	646	589	-57
Sirdaryo tumani	333	339	6
Mirzaobod tumani	299	203	-96
Sayxunobod tumani	242	202	-40

2021-yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Guliston shahrida– 589 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar- dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 21,1 birlikni tashkil etdi.



Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 42,8 birlik, Yangiyer shahrida 21,5 birlik, Sayxunobod tumanida 21,8 birlik, Oqoltin tumanida 21,6 birlik, Guliston tumanida 21,3 birlik, Mirzaobod tumanida 20,6 birlik, birlik tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 13,1 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2021- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-dekabrda 70,5 %).

69,2 %
2021- y.

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushi bilan izohlanadi.

70,5 %
2020- y.
2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Sirdaryo viloyati	39,6	80,6	53,8	51,0
<i>shahar</i>				
Guliston	66,8	97,7	32,8	19,8
Shirin	0,8	51,2	90,5	9,0
Yangiyer	57,4	99,6	80,1	60,3
<i>tumanlar</i>				
Oqoltin	58,9	99,8	68,8	32,5
Boyovut	91,8	96,7	54,2	91,2
Sayxunobod	65,3	99,4	64,1	54,6
Guliston	51,5	80,1	68,7	45,7
Sardoba	100,0	99,7	71,4	78,5
Mirzaobod	99,7	77,0	76,0	71,9
Sirdaryo	53,5	47,9	75,8	41,8
Xovos	79,9	58,1	69,2	80,5

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Sardoba (100,0 %), Mirzaobod (99,7 %), Boyovut (91,8 %), Xovos (79,9 %), Guliston sh.(66,8 %) va Sayxunobod (65,3 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Oqoltin (99,8 %), Sardoba (99,7 %), Yangiyer sh. (99,6 %), Sayxunobod (99,4 %), Guliston sh. (97,7 %) va Boyovut (96,7 %) tumanlarida.


Xizmatlarda-

Shirin sh (90,5%), Yangiyer sh(80,1%), Mirzaobod (76,0 %), Sirdaryo (75,8 %), Sardoba (71,4 %) va Xovos (69,2 %) tumanlarida.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 179,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 76,4 % ini tashkil etdi.





Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sayxunobod tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,4 %, Mirzaobod tumanida – 97,1 %, Boyovut tumanida – 75,2 %, Guliston shahrida – 72,9 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – 7,5 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 287,8 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 66,5 % ini tashkil etdi.




2021-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod tumanida – 100 %, Sardoba tumanida – 100 %, Yangiyer shahrida – 100 %, Xovos tumanida – 99,9 %, Oqoltin tumanida – 99,3 %, Mirzaobod tumanida – 85,2 % ni. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 3,2 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar - dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 3866,9 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (931,6 mlrd. so'm), Guliston shahrida (729,4 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (422,5 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (401,2 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (385,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (30,7 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 39,6 foizni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumanida (100 %), Mirzaobod tumanida (99,7 %), Boyovut tumanida (91,8 %), Xovos tumanida (79,9 %), Guliston shahrida (66,8 %) ni tashkil etdi. Shirin shahrida (0,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3713,7 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,1 foizni tashkil qildi.


2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahrida (1191,7 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (768,1 mlrd. so'm), Xovos tumani (304,0 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (266,9 mlrd. so'm), Sardoba tumani (243,4 mlrd. so'm), Oqoltin tumani (238,0 mlrd. so'm) va Sayxunobod tumani (180,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2323,7 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 80,6 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati % da 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 138,7 foizni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (809,4 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (303,3 mlrd. so'm), Guliston tumanida (249,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (183,9 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (162,7 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (141,9 mlrd. so'm) hamda Xovos tumanida (121,0 mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 2305,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 53,8 % ini tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 117,3 % ni tashkil qildi.






2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (652,5 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (438,4 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (258,9 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (152,7 mlrd. so'm), Xovos tumani (137,2 mlrd. so'm), Sayxunobod tumani (130,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,1 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 104,0 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 87,8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati - 105,5 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,5 foizni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,1 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 foizni tashkil qildi.








Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalardan tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **440** ta respondentlar ishtirok etdi.



2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,5 % (33 ta), sanoatda – 13,0 % (57 ta), qurilishda – 9,1 % (40 ta) , savdoda – 43,6 % (192 ta), xizmatlar sohasida – 26,8 % (118 ta) ni tashkil etdi.


2021- yil IV choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
Sanoat
Qurilish
Savdo
Xizmatlar


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida, oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 45,7 % ni, xizmatlarda 25,6 % ni, sanoatda 17,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda 44,2 % ni, xizmatlarda 26,4 % ni, sanoatda 18,1 % ni tashkil etdi.



2021- yil IV choragida kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da


Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 45,8 %, xizmatlarda 26,9 %, sanoatda 16,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin uch oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi savdoda 43,0 %, xizmatlarda 26,1 %, sanoatda 10,6 % ni tashkil etdi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi**

Nashr uchun mas’ul: Sh.O‘razaliev.

Tel.: (67) 236-86-16

